

TASVIRIY SAN'ATDA USLUB VA YO'NALISHLARNING SHAKLLANISHIDA NAZARIY-TARIXIY YONDASHUV

Xojibekova Sadoqatbonu Zafarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi

"Tasviriy san'at" yo'nalishi magistranti

sadoqatoyzafarovna@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tasviriy san'at nazariyasi va tarixining boshlang'ich tushunchalarini chuqur o'rganish orqali san'atning turli uslub va yo'nalishlarini tizimli tahlil qilish zarurati yoritib berilgan. Tadqiqot jarayonida tasviriy san'at taraqqiyotining asosiy bosqichlari, milliy va jahon tasviriy san'at maktablarida shakllangan uslubiy va texnologik xilma-xillikning badiiy tafakkur rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, san'at tarixini o'rganishning hozirgi davrdagi ahamiyati, kompozitsion tafakkurni rivojlantirish hamda san'at asarlarini ilmiy asosda baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda nazariy bilimlarning o'rni asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, san'at nazariyasi, san'at tarixi, uslub, yo'nalish, estetik tafakkur, badiiy did, badiiy meros.*

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость системного анализа различных стилей и направлений изобразительного искусства на основе углублённого изучения теоретических и исторических основ. В ходе исследования анализируются основные этапы развития изобразительного искусства, а также влияние стилевого и технологического многообразия национальных и мировых художественных школ на формирование художественного мышления. Особое внимание уделяется вопросам формирования эстетического вкуса, значимости изучения истории искусства в современных условиях, развитию композиционного мышления и навыков научного анализа художественных произведений.*

Ключевые слова: *изобразительное искусство, теория искусства, история искусства, стиль, направление, эстетическое мышление, художественный вкус, художественное наследие.*

Annotation. *This article examines the necessity of a systematic analysis of various styles and directions in visual art through an in-depth study of its theoretical and historical foundations. The research analyzes the main stages of visual art development and explores the influence of stylistic and technological diversity in national and global art schools on the formation of artistic thinking. In addition, the article highlights the importance of developing aesthetic taste, studying art history in contemporary contexts, enhancing compositional thinking, and acquiring skills for the scientific evaluation of artworks.*

Keywords: *visual arts, art theory, art history, style, direction, aesthetic thinking, artistic taste, artistic heritage.*

Tasviriy san'at ong va tafakkurning eng ko'hna mahsuli bo'lib, insoniyat uzoq yillik tarixiy taraqqiyot asnosida atrof muhit, tabiat va voqelikka nisbatan o'z munosabatini sodda shakllarda bildirishga intilgan [1]. Shu alfozda tasviriy san'atning dastlabki sodda namunalari yuzaga kela boshladi. Bu insoniyatning ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, yer yuzida ilk sinfiy jamiyatning shakllanishi va undan keyingi davrning ijtimoiy-madaniy va tarixiy-tadrijiy jarayonlari pirovardida takomillashib borgan [11]. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamni boyitadigan san'at turlaridan biri hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolotiga muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Quyida iptidoiy jamoa davridan boshlab to boshqa yirik davlatlar san'ati taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning muammosi shundan iboratki, tasviriy san'at tarixini ko'pincha faktologik yondashuv asosida o'rganish kuzatiladi, uslubiy va mafkuraviy tahlil esa yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tadqiqotning maqsadi – ibtidoiy san'atdan boshlab qadimgi sivilizatsiyalar san'atigacha bo'lgan jarayonni nazariy-tarixiy yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida san'atning vazifaviy evolyutsiyasini aniqlash, uslub va yo'nalishlarning shakllanish omillarini ochib berish belgilandi.

Ibtidoiy tasviriy san'atni faqat estetik faoliyat sifatida emas, balki inson tafakkurining ramziy bosqichi mahsuli sifatida baholash maqsadga muvofiq. Ushbu davr san'ati marosimiy-sehrli vazifani bajarib, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Ibtidoiy jamoa davri eng uzoq davom etgan tarixiy bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda odamlarning dastlabki tasavvurlari, badiiy estetik his tuyg'ulari va dunyoqarashi shakllana boshlagan [2]. Ushbu bosqich deyarli barcha hududlarda bosib o'tilgan bo'lib, insonning tabiat bilan munosabati va hayotiy tajribasi tasviriy shaklda ifodalangan. O'z davrining sodda hayotiy manzaralarini aks ettiruvchi devoriy suratlar, dekorativ uslubdagi shartli harakterli haykaltaroshlik namunalari bunga misol bo'la oladi [10]. Mazkur tasvirlar asosan g'or devorlariga va qoyatosh yuzalariga ishlangan bo'lib, animalistik janr ustuvorlik qilgan [10]. Ibtidoiy tasvirlar tabiiy bo'yoqlarda bajarilganligi hamda ko'pincha natural kattalikka yaqinligi bilan ajralib turadi [5].

Paleolit davri tasvirlaridagi anatomik aniqlik va harakat ifodasi keyingi realizm an'alarining shakllanishiga asos bo'lgan. Shu jihatdan paleolit san'atini tasviriy tafakkur evolyutsiyasining boshlang'ich, ammo mustaqil bosqichi sifatida baholash mumkin. Paleolit davri tarixiy taraqqiyotning eng uzoq bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda san'at ilk shakllanish bosqichidan boshlab, nisbatan mukammal ifoda darajasiga yetgan [5]. Paleolit davriga oid tasvirlar Yevropa va Osiyo mintaqalaridan topilgan topilgan bo'lib, ular asosan g'or shiplari va devorlariga ishlangan [7]. Dastlabki rasmlar primitiv bo'lishiga qaramay unda hayvonlarning ko'rinishini ancha aniq tasvirlangan. Mamont, yirik qo'tos, kiyik, ot va boshqa hayvonlar kontur chiziqlarda, tabiiy bo'yoqlarda ishlangan [5,10]. Bu tasvirlar orqali hayvonlarning turi va anatomic tuzilishi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Paleolit davri rassomlari hayvonlar harakatini va plastic holatini mohirona ifodalay olganlar [7]. Yovvoyi hayvonlarni tashqi ko'rinishini ifodalash bilan hayvonlar turi to'g'risida aniq

tasavvur uyg'otishga xizmat qiladi. Ispaniyadagi Altamir g'orida topilgan paleolit davriga oid "Bizonlar" tasviri ibtidoiy san'atda anatomik aniqlik, hajm va harakat tushunchalarining shakllanganini yaqqol ko'rsatadi [7,112-114-b]. Ushbu tasvirlar ibtidoiy odamlarning kuzatuvchanligi va tajribaga tayangan holda ijod qilganini tasdiqlaydi [10]. Ilk sinfiy jamiyatlarning shakllanishi bilan tasviriy san'atning ijtimoiy vazifasini o'rganib, u hukmron tabaqalar manfaatiga xizmat qiluvchi mafkuraviy vositaga aylangan [6;11]. Bu jarayon ayniqsa Qadimgi Misr san'atida yaqqol namoyon bo'ladi.

Qadimgi Misr tasviriy san'ati "vizual mafkura modeli" sifatida namoyon bo'lib, san'at vositasida ijtimoiy ierarxiya va hokimiyatning ilohiyligi mustahkamlangan. Bu holat san'atning davlat boshqaruvidagi vosita sifatida qo'llanilganini ko'rsatadi. Qadimgi Misr tasviriy san'ati kohinlar tomonidan belgilangan qat'iy qonun-qoidalarga asoslangan bo'lib, unda fir'avn hokimiyatini ulug'lash yetakchi o'rinni egallagan [8]. Devoriy suratlar va bo'rtma tasvirlarda fir'avnlarni oddiy insonlarga nisbatan bir necha barobar katta hajmda tasvirlangan bo'lib, bu ijtimoiy tengsizlikni visual tarzda mustahkamlashga xizmat qilgan [8,145-b]. Misr san'atida tasvirlar simmetrik va mutanosib kompozitsiyaga ega bo'lib, gavda old tomondan, bosh va oyoqlar yon tomondan tasvirlangan [12]. Qadimgi Misr podshohlik davriga oid Namer plitasi fir'avn hokimiyatining ramziy ifodasi bo'lib, Misr san'atining siyosiy va mafkuraviy mohiyatini ochib beradi [8,152-b]

Agar Misr san'atida statiklik va kanon ustuvor bo'lsa, Old Osiyo san'atida harakat, drammatizm va kuchli plastika yetakchi o'rinni egallaydi. Bu farq san'at rivojining ijtimoiy-siyosiy sharoitga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr san'ati singari keng va rang-barang. Bu yerda hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi. Dumaloq haykaltaroshlik va relefda ajoyib o'rta dinamik, plastik go'zal asarlar yaratildi, devoriy suratlar, nozik amaliydekorativ buyumlar ishlandi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha kam etib kelgan. Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashkil qilgan Ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) bir-birini almashtirib turgan yangi-yangi davlatlar o'rtasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, me'morlik va tasviriy san'atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog'och va metallardan etarli bo'lmaganidan deyish mumkin.

Old Osiyo (Mesopotamiya) san'ati ham o'ziga xos badiiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu hududda yaratilgan haykaltaroshlik, relief va devoriy suratlar dinamiklik, drammatizm va kuchli plastika bilan ajralib turadi [3;9]. Biroq siyosiy beqarorlik, doimiy urushlar hamda tabiiy resurslarning yetishmasligi sababli bu hududning ko'plab badiiy yodgorliklari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Shunga qaramay, saqlanib qolgan namunalar Old Osiyo san'atining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Ayniqsa Assuriya releflarida hukmdor qudrati va harbiy kuchining ifodasi ustvor hisoblanadi [3,97-b].

Bir so'z bilan aytganda, ibtidoiy jamoa davridan boshlab qadimgi sivilizatsiyalar davrigacha bo'lgan tasviriy san'at taraqqiyoti insoniyat tafakkuri, ijtimoiy tuzum va mafkuraviy qarashlarning badiiy ifodasidir. Tasviriy san'at nafaqat estetik qadriyat, balki jamiyat hayotini aks ettiruvchi va unga ta'sir ko'rsatuvchi muhim madaniy omil sifatida

tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarga tayangan holda ibtidoiy g'or rasmlarini faqat sodda tasviriy faoliyat emas, balki inson tafakkurining ramziy bosqichi mahsuli sifatida qarash lozim. Paleolit davriga oid hayvon tasvirlaridagi anatomik aniqlik va harakat ifodasi ibtidoiy insonda kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash rivojlanganini ko'rsatadi. Shu bois ibtidoiy san'atni ong va tafakkur shakllanishining muhim bosqichi hisoblangan.

Altamira va Lasko g'or rasmlari misolida paleolit davri tasviriy san'atida kompozitsiya, ritm va harakat tushunchalari mavjud. Shundan kelib chiqib, paleolit san'atini keyingi davrlar uchun tayanch bo'lgan mustaqil badiiy tizim sifatida tahlil qilish va uni rivojlanish zanjirining boshlang'ich nuqtasi deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ibtidoiy san'at marosimiy-sehrli vazifani bajargan bo'lsa, ilk sinfiy jamiyat shakllanishi bilan san'at mafkuraviy vositaga aylangan. Shu asosda tasviriy san'atning vazifaviy evolyutsiyasini (marosimiy → axborotiy → mafkuraviy) aniq bosqichlar orqali ilmiy tizimlashtirish mumkin.

Fir'avnlarining yirik hajmda, oddiy insonlarning kichik miqyosda tasvirlanishi ijtimoiy tengsizlikni vizual tarzda mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bois Misr tasviriy san'atini "vizual modeli" sifatida tahlil qilish va uni siyosiy boshqaruvning badiiy mexanizmi sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli bo'ladi. Ibtidoiy san'atda tabiiylik va realizmga intilish kuchli bo'lgan bo'lsa, Misr san'atida qat'iy kanon ustuvor bo'lgan. Shu asosda realizmning rivojlanishi chiziqli emas, balki ijtimoiy tuzumga bog'liq jarayon ekanini ilmiy jihatdan asoslasa bo'ladi.

Assuriya releflaridagi harakat, drammatizm va kuchli plastika Misr san'atidagi statiklikdan tubdan farq qiladi. Shu sababli Old Osiyo san'atini siyosiy qudrat va harbiy kuchni ifodalovchi dinamik vizual tizim hisoblanadi. Ma'lumotlar asosida san'atning estetik vazifadan tashqari jamiyat ongiga bevosita ta'sir ko'rsatganini ochib berish zarur. Bu san'atni faqat madaniy hodisa emas, balki ijtimoiy-mafkuraviy mexanizm sifatida shakllanganligini ifodalaydi. Paleolit san'ati, Misr va Mesopotamiya san'atini o'zaro qiyoslash orqali badiiy tafakkurning hududiy xususiyatlarini aniqlash va ularning rivojiga tabiiy, siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sirini ochib beradi.

Xulosa. O'rganilgan tarixiy va ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at inson ong va tafakkurining eng qadimgi va barqaror ifoda shakllaridan biri bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan [1;6;9]. Ibtidoiy jamoa davrida yuzaga kelgan dastlabki tasvirlar insonning atrof-muhitni anglashga, tabiat hodisalarini tushunishga va hayotiy tajribasini obrazli shaklda ifodalashga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan. Bu davr san'ati sodda ko'rinishiga qaramay, unda ramziy tafakkur, kuzatuvchanlik va estetik idrokning ilk belgilari shakllangan. Ibtidoiy san'atda marosimiy va sehrli vazifa ustuvor bo'lgan bo'lsa, ilk sinfiy jamiyatlarda san'at mafkuraviy boshqaruv vositasiga aylangan [11]. Altamira va Lasko g'or rasmlari paleolit davri tasviriy san'atini mustaqil badiiy tizim sifatida baxolash imkonini beradi [7]. Hayvonlar anatomiyasining aniq ifodalanishi, harakat va hajmni berishga bo'lgan intilish tasviriy san'atning dastlabki bosqichidayoq realistik unsurlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shu bois tasviriy san'atni faqat

estetik hodisa sifatida emas balki jamiyat ongini shakllantiruvchi va boshqaruvchi muhim madaniy-tarixiy mexanizm sifatida o'rganish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi [4;6].

Ilk sinfiy jamiyatlarning shakllanishi bilan tasviriy san'atning vazifasi tubdan o'zgargan. San'at endilikda nafaqat estetik, balki kuchli ijtimoiy-mafkuraviy ahamiyat kasb etib, jamiyat ongini boshqarish vositasiga aylangan. Qadimgi Misr san'ati bunga yorqin misol bo'lib, unda qat'iy kanonlar, vizual ierarxiya va shartli tasvirlash usullari orqali fir'avn hokimiyatining ilohiyligi va mutlaq ustuvorligi mustahkamlangan. Tasviriy san'at bu yerda davlat boshqaruvining muhim badiiy mexanizmi sifatida namoyon bo'lgan.

Old Osiyo san'ati esa o'zining dinamik ifodaviyligi, dramatik sahnalari va kuchli plastika vositalari bilan ajralib turadi. Assuriya releflarida hukmdor qudrati va harbiy kuchning badiiy targ'ibi yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, bu hudud san'atida tasviriy vositalarning mafkuraviy vazifasi yanada kuchayganini ko'rsatadi. Siyosiy beqarorlik va tabiiy resurslar tanqisligiga qaramay, Old Osiyo san'ati qadimgi dunyo badiiy tafakkurining muhim bosqichlaridan birini tashkil etadi.

Umuman olganda, tasviriy san'at taraqqiyoti ibtidoiy marosimiy tasvirlardan boshlab murakkab mafkuraviy tizimlarga qadar bo'lgan uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon inson tafakkurining rivojlanishi, ijtimoiy tuzumlarning almashuvi va madaniy qadriyatlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, tasviriy san'atni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki jamiyat ongini shakllantiruvchi va boshqaruvchi muhim madaniy-tarixiy omil sifatida o'rganish zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tasviriy san'atning tarixiy taraqqiyoti jarayonida uning vazifalari quyidagi bosqichlarda rivojlangan: marosimiy-sehrli → axborotiy → mafkuraviy. Ushbu evolyutsiya san'atning jamiyat hayotidagi rolini bosqichma-bosqich murakkablashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jayev A. Tasviriy san'at tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 240 b.
2. Burenina O. Ibtidoiy san'at va uning ramziy ma'nolari. – Moskva: Iskusstvo, 1987. – 198 s.
3. Frankfort H. The Art and Architecture of the Ancient Orient. – New Haven: Yale University Press, 1996. – 368 p.
4. Gardner H. Art through the Ages. – New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1991. – 720 p.
5. Gombrich E. H. The Story of Art. – London: Phaidon Press, 2006. – 688 p.
6. Honour H., Fleming J. A World History of Art. – London: Laurence King Publishing, 2009. – 996 p.
7. Kleiner F. S. Gardner's Art through the Ages: The Ancient World. – Boston: Cengage Learning, 2013. – 448 p.
8. Makovelskiy A. Drevniy Misr iskusstvi. – Sankt-Peterburg: Nauka, 1998. – 312s.

9. Mo‘minov X. Qadimgi Sharq san’ati tarixi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 260b.
10. Pryor J. Cave Art and Human Symbolic Thinking. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 284 p.
10. Qodirov B. Jahon san’ati tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 304b.
11. Saidov A. Qadimgi dunyo san’ati. – Toshkent: Akadernashr, 2016. – 280 b. Tasviriy san’at va arxeologiya masalalari bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2017. – 220 b.